



THE DEVELOPMENT OF MUSICAL ART IN CENTRAL ASIA BEFORE THE RENAISSANCE PERIOD

T.N. Shokirov

Senior Lecturer

Department of Music Education and Culture

Fergana State University

e-mail: toxir1304@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, singing art, music culture, al-Farabi, Ibn Sina, Urmavi, Borbad Marvazi, maqam.

Received: 01.05.26

Accepted: 01.05.26

Published: 01.05.26

Abstract: This article analyzes the formation and development of traditional singing art in ancient Central Asia within the context of socio-political and cultural transformations. Particular attention is given to the evolution of musical culture from the Kushan period to the era of the Turkic Khaganate, and the role of urbanization and oral folk traditions. The contribution of prominent Eastern scholars such as Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali Ibn Sina, and Safiuddin Urmavi to the development of music theory is examined. Based on archaeological findings, historical sources, and scholarly research, this study highlights the characteristics of musical traditions, instruments, and performance practices. Special emphasis is also placed on the творчество of Borbad Marvazi and his significance in the history of Eastern Music.

MARKAZIY OSIYO UYG‘ONISH DAVRIGACHA MUSIQA SAN‘ATINING RIVOJLANISHI

T.N. Shokirov

FarDU Musiqiy ta’lim va madaniyat

kafedrasi katta o‘qituvchisi

toxir1304@gmail.com

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Oʻrta Osiyo, qoʻshiqchilik sanʼati, musiqa madaniyati, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Borbad Marvaziy, maqom.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Oʻrta Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar fonida qoʻshiqchilik sanʼatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, Kushonlar davridan boshlab Turk xoqonligi davrigacha boʻlgan davrda musiqa madaniyatining taraqqiyoti, shahar madaniyatining kengayishi va xalq ogʻzaki ijodining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiyuddin Urmaviy kabi mutafakkirlarning musiqa nazariyasiga qoʻshgan hissasi ilmiy asosda tahlil etilgan. Arxeologik topilmalar, tarixiy manbalar va xorijiy tadqiqotchilar qarashlari asosida qadimgi musiqa anʼanalari, cholgʻu asboblari hamda ijrochilik madaniyatining rivoji ochib berilgan. Maqolada, shuningdek, Borbad Marvaziy ijodi va uning Sharq musiqa sanʼatidagi oʻrni alohida eʼtirof etiladi.

РАЗВИТИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ДО ЭПОХИ ВОЗРОЖДЕНИЯ

Т.Н. Шокиров

Старший преподаватель Кафедра музыкального образования и культуры

Ферганского государственного университета

e-mail: toxir1304@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, певческое искусство, музыкальная культура, Фараби, Ибн Сина, Урмави, Борбад Марвази, макам.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы формирования и развития традиционного певческого искусства в древней Центральной Азии в контексте социально-политических и культурных изменений. Особое внимание уделяется развитию музыкальной культуры в период от Кушанской империи до эпохи Тюркского каганата, а также роли городской культуры и устного народного творчества. Рассматривается вклад выдающихся мыслителей Востока — Абу Насра Фараби, Абу Али ибн Сины и Сафиюддина Урмави — в развитие музыкальной теории. На основе археологических находок, исторических источников и научных исследований

раскрываются особенности музыкальных традиций, инструментов и исполнительского искусства. Также особое внимание уделяется творчеству Борбада Марвази и его значению в истории восточной музыки.

Kirish. Qadimgi O'rta Osiyoda feodal munosabatlarning qaror topishi mazkur o'lkada uzoq davom etgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-mafkuraviy jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida yuz berdi. Kushon davlatining gurkirab taraqqiy etgan davrida boshlangan yuksalish ushbu tarixiy hudud aholisining hayotida ma'naviy jihatdan muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Shaharlarning paydo bo'lishi o'lka aholisi ijtimoiy-siyosiy, ruhiy-mafkuraviy hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Shaharlarning kengayishi, mamlakat hayotida tutgan o'rnini oshishi, savdo-sotiq tufayli mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi – bularning barchasi yangicha shakllana boshlagan shahar madaniyatining takomillashuviga olib keldi.

O'rta Osiyo, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududida turk xoqonligi davrida ushbu o'lkalarda yashagan xalqlar ijtimoiy madaniy hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Bunday hol mazkur xalqlar musiqa va qo'shiqchilik san'atida ham aks etdi. Arxeologik va tarixiy manbalar bunday xalqlar madaniy hayotida an'anaviy qo'shiqchilik san'ati turlari saqlanib qolganligi hamda yanada takomillashganligidan dalolat beradi. Bunga IV-VIII asrlar davomida musiqachilar tasviri tushirilgan buyum va idishlar ham dalil bo'la oladi.

Materiallar va metodlar. Tarixchi olim Hojiakbar Hamidov o'zining "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi" asarida o'sha davrda shakllangan yosh musulmon davlatlari o'rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalar jonlandi, madaniyat namunalari bilan almashuv, o'zaro ma'naviy ta'sir kuchaydi. qadimgi xind, fors, arab, yunon madaniy qadriyatlarini negizida adabiyotlarda "musulmon madaniyati" deb nom olgan yangi madaniy qatlam vujudga kelganligi haqida yozadi.

Markaziy Osiyo musiqa madaniyati tarixini o'rganishda mashhur olim Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega. Uning Kitob al-Musiqa al-Kabir asari Sharq musiqa nazariyasining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Asarda musiqa tovushlarining tabiati, lad tizimi, ritm hamda cholg'u asboblari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Ushbu asar Markaziy Osiyo va umuman Sharq musiqa nazariyasining shakllanishida muhim o'rin tutadi.[1]

Shuningdek, buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino ham musiqa nazariyasi rivojiga sezilarli hissa qo'shgan. Uning Kitob ash-Shifo va Kitob an-Najot asarlarida musiqa falsafiy va ilmiy

jihatdan tahlil qilinadi.[2] Ibn Sino musiqa tovushining fizik xususiyatlari, inson ruhiyatiga ta'siri hamda musiqa va matematika o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda tushuntiradi.

Sharq musiqa nazariyasining keyingi rivojlanishida Safiyuddin Urmaviyning ilmiy ishlari ham muhim hisoblanadi. Uning Kitab al-Advar asari maqom tizimi, musiqiy ladlar va ritmik tuzilishlarni ilmiy jihatdan tizimlashtirgan asarlardan biridir.[3] Mazkur asar Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq musiqa nazariyasining rivojlanishida muhim manba sifatida e'tirof etiladi.

Markaziy Osiyo musiqa tarixini o'rganishda zamonaviy tadqiqotchilar ham muhim ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, Viktor Belyaev va Boris Asafyev kabi olimlar Sharq xalqlari musiqa madaniyatining tarixiy ildizlari, janr xususiyatlari hamda maqom san'atining shakllanish jarayonlarini ilmiy jihatdan tahlil qilganlar.[4] Ularning tadqiqotlarida Markaziy Osiyodagi qadimgi musiqiy an'analar, xalq og'zaki ijodi hamda professional musiqa maktablari haqida muhim ilmiy xulosalar berilgan.

Mazkur tadqiqotda qadimgi O'rta Osiyoda qo'shiqchilik san'ati va musiqa madaniyatining shakllanishi hamda rivojlanishini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga asoslanildi.

Shuningdek, manbashunoslik metodi asosida arxeologik topilmalar, yozma tarixiy manbalar va musiqashunoslikka oid ilmiy asarlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda struktural-funksional tahlil metodi ham qo'llanilib, musiqa madaniyatining jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni, uning marosimlar, bayramlar va saroy an'alaridagi funksional ahamiyati ochib berildi.

Muhokama va natijalar. Iakinf Bichurin o'zining "O'rta Osiyoda qadimgi davrlarda yashagan xalqlar haqidagi ma'lumotlar to'plami" kitobida yozishicha, shaharlardagi hukmdorlar saroyida katta va kichik nog'oralalar, udlar, qonunlar va naylar muntazam chalinib turgan. VI-VIII asrlarda masalan, Panjikent yirik iqtisodiy va madaniy markaz sifatida mashhur bo'lib, A. Beleniskiy bu yerdagi maxsus bayram tadbirlari va dafn marosimlarida sozandalar, qo'shiqchilar va raqqoslar o'z o'rnida doimiy ravishda faoliyat ko'rsatganliklarini ta'kidlaydi"[6].

Bulardan tashqari, qazilmalarda qo'shiq aytayotgan, raqsga tushayotgan va musiqa cholg'ulari chalayotganlar tasviri tushirilgan maxsus uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar ham topilgan. V-VII asrlarda topilgan qo'shiqchi va musiqachilar tasvirlangan haykalcha va naqshlar bundan ilgari davrga mansub shunday ashyolardan ancha farq qiladi. Ammo ular qo'lida tasvirlangan ud, qo'shnog'ora va o'zga sozlar hozirgacha o'z shaklini deyarli o'zgartirmay saqlanib qolganini ko'rish mumkin.

Panjikent topilmalaridan yana birida qattiq gardishli, egik chang chalayotgan musiqachi ayol tasvirlangan. Ayni shu yerda yana nay, ud kabi musiqiy sozlar chalayotgan va qo'shiq kuylayotganlar tasviri ham mavjud bo'lib, bular majmui kichik bir ansambl mavjudligidan darak beradi. Shuningdek, bu yerda raqsga tushayotgan to'rt nafar raqqosalarning ham tasviri ko'rinib turibdi. Bolaliktepa qal'asidan topilgan V-VI asrlarga ond tasvirda maxsus tashkil etilgan ziyofatda bir necha musiqachilar ishtirok etayotgani ko'rsatilgan. Bunda musiqachilar chang, nay chalayotgani, xonanda esa qo'shiq aytayotganini ko'rish mumkin. VII asrda So'g'dga kelgan budda monaxining yozishicha, Samarqand ahli har bir bayramni qo'shiq va raqssiz o'tkazmagan va bu san'at turi o'sha aholi ijtimoiy-madaniy hayotida alohida rol o'ynagan.

O'rganilayotgan davrda O'rta Osiyo qo'shiqchilik san'atining yuksak darajada rivoj topganligini boshqa davlatlar xalqlari e'tirof etganligi bilan ham izohlash mumkin edi. O'lkamizda ijod qilgan ko'plab qo'shiqchi, sozanda, raqqosa san'atkorlar o'zga davlatlar hukmdorlari saroylaridagi rasmiy tantanalarda o'z mahoratlarini namoyish etganlar. Bu borada o'lkamiz san'atkorlari Xitoyda katta nufuzga ega bo'lganliklarini ko'rsatib o'tish mumkin. Xitoy imperatori saroyida Buxoro, Samarqand, Shosh va boshqa shaharlardan kelgan musiqachi, ashulachi va raqqosalar o'z san'atlarini namoyish qilganlar. Ingliz olimi E.Sheferning yozishicha, Xitoyda O'rta osiyolik va Sharqiy turkistonlik musiqachilar doimo izzatda bo'lgan. Buxorolik tomoshachilar, samarqandlik naychilar, toshkentlik raqqosa va boshqalar Uzoq Sharqda doimo panoh topishga ishonar edilar. VI asrning ikkinchi yarmida Marv viloyati Movarounnahrning muhim siyosiy-ma'muriy va madaniy markazlaridan birga aylangan.[8]

Turon xalqlari o'ziga xos madaniyat va san'at sohibi edilarki, biz buni quyidagi manbada yaqqol ko'rishimiz mumkin. Abulfaraj al-Isfaxoniyning arab tilida yozilgan "Qo'shiqlar kitobi" asarida ta'kidlanishicha, arablarning mashhur qo'shiqchilari Musajjin hamda Ibn Muhrizlar boshqa mamlakatlar qatori Urta Osiyoda ham bo'lib, bu hududda turli kuylarin o'rganganlar va ular asosida qo'shiqlar ijrosi tizimini yaratib, arab baytlarini ijro eta boshlaganlar.

Uyg'onish davrigacha bo'lgan musiqa san'ati va uning rivoji haqida gap ketganda Sharqning serqirra ijodkori, Turonzaminning Marv viloyatida tavallud topgan ilk alloma bastakor Borbad Marvaziy ijodiga alohida to'xtalish lozim. Bu san'atkorning o'zi tug'ilib o'sgan hududdagi ijodi hamda Eron sostoniyalari shohi Xusrav Parvez II huzuriga borgunga qadar kechgan hayotiy faoliyati haqida juda kam ma'lumotlar saqlangan. Shuning uchun bizgacha yetib kelgan shu ma'lumotnigina bayon eta olamiz. Shunisi aniqki, Borbad o'z ijodi va boshqa san'atkorona fazilatlarini bilan O'rta Osiyo va Eron xalqlari o'rtasidagina emas, balki butun Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhur bo'lgan. Buning sabablari ko'p bo'lib, bizningcha, uning eng muhimi

Borbadning ijodi o'rganilayotgan davrda boshqa hududlardagi xalqlar orasida keng tarqalgan fors-tojik tilidagi- na emas, balki butun Sharq xalqlari tillarida ham kuy va qo'shiqlar yaratib, mukammal ijro etganligidadir. Atoqli musiqashunos V.Vinogradov o'zining "Классические традиции иранской музыки" nomli kitobida Borbad Marvaziy haqida "Borbadning nomi va shuhrati ayniqsa sosoniylar davrida Sharqda va uning vatani bo'lmish Turonda keng yoyildi. Uning ona shahri bo'lmish Marv esa o'zining madaniyati hamda musiqaviy an'analari bilan mashhur edi", deb yozadi. Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038 yillar) esa o'zining "Yatimat at-daxr" asarida ta'kidlashicha, Borbad Turon o'lkasining Marv viloyatidan bo'lib, keyinchalik arablar unga, Faxlabod yoki Faxlaboz deb nom berganlar.[7]

Borbad taxminan 588-yili Marv viloyatida tavallud topadi. Borbad tabiat in'om etgan betakror yoqimli ovoz sohibi, sozanda, bastakor, raqqos va shoir edi. U Marvda 29 yoshigacha, ya'ni Eron shohi Xusrav Parvez II huzuriga borguniga qadar o'zining yuqorida qayd etilgan serqirra san'ati bilan mashhur bo'lib tanila bordi, shuningdek, Baqtriya, So'g'd va Marg'iyona xalqlari madaniyatidan bahramand bo'ldi.

O'sha davrlarda Eron sosoniylari shohi bo'lmish Xusrav Parvez II saroyida hunar egalariga, jumladan, san'atkorlarga qulay imkoniyatlar yaratilgan ediki, natijada bu yerga ko'pgina xorijiy mamlakatlardan badiiy ijod ahllari kelib, shoh saroyidagi xizmatga o'tgan edilar. Turondagi siyosiy boshboshdoqlik va notinchliklar hamda ijodkorlar uchun sosoniylar shohi huzurida yaratilgan qulayliklar, qolaversa, o'z qobiliyatini yanada oshirish, atoqli san'atkorlar bilan ijodiy muloqot qilish ishtiyoqi Borbad Marvaziyini ham Xusrav Parvez II huzuriga borishga undardi. Sosoniylar sulolasining so'nggi hukmdorlaridan bo'lgan Xusrav Parvez II shohlik qilgan davr (590- 628 yy.) da Eronda madaniyat ayniqsa gullab-yashnadi. Sosoniylar sulolasi hukmronligi 400 yildan ortiqroq (226-651 yy.) davom etgan bo'lib, bu davr madaniyat, san'at ancha rivoj topganligi bilan tavsiflanadi. Masalan, sosoniylar hukmdorlaridan bo'lgan Bahrom Go'r (Varaxran V) Hindistondan turli sohalarda faoliyat ko'rsatgan 400 nafar san'atkorni Eronga keltirib, o'z saroyida saqlaganini Abu Mansur as-Saolibiy o'z asarlarida qayd etgan. Eron tarixchisi Hamza Is- faxoniy (X asr) esa bunday ma'lumot beradi: Bahrom Go'r Hindistondan 2 ming nafarga yaqin qo'shiqchi va sozandalarni olib kelib, Eronning barcha viloyatlariga tarqatgan va ular yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan. Bu tadbirlar esa, albatta, Sosoniylar davri san'ati ravnaqiga barakali hissa bo'lib qo'shilmay qolmadi. San'atni sevish, uning namoyondalarini e'zozlash, Xusrav Parvez II ning shaxsiy xislatlaridan biri bo'lganligidan uning saroyida turli soha ijodkorlari, jumladan, qo'shiqchilikda dong taratgan hofizlarning katta guruhi to'plangan edi. Bu san'atkorlar nafaqat eronlik, balki atrof mamlakatlardan ham shoh xizmatiga taklif qilingan bo'lib, saroyda

ularning ijodi uchun qulay muhit yaratilgan edi. Ular orasida mohir musiqachilar, qo‘shiqchilar, musiqa nazariyotchilari, raqqosalar, bastakorlar bo‘lib, Sarkash, Bamshod, Nokus, Romtin, Navogar, Sarkab, Ozodvar Changiy, Robustlar shular jumlasidan edi. Borbad Marvaziy ular davrasida yorqin yulduz bo‘lib, alohida ajralib turardi. Shuni aytish joizki, Sosoniylar davri san’atida nay, barbat, rubob, chang, karnay, surnay, nog‘ora va boshqa sozlardan ko‘proq foydalanilgan.

Xulosa. Borbad Sharq san’atida hozirgi kungacha keng foydalanib kelinayotgan an’anaviy musiqa sozi bo‘lgan udni yanada takomillashtirdi va unda mislsiz kuylar ijod etdi. Bu sozga hatto Borbad nomi berilgan. Shundan beri bu soz manbalarda ham, el orasida hozir ham shu ikki nom bilan atalib kelinadi. Borbad san’at tarixida birorta san’atkor tutmagan yo‘lni kashf etdi, ya’ni yilning har bir kuniga bag‘ishlangan 360 dan ortiq kuylar yaratdi. U ijod etgan boshqa 30 ta tarona “Oy sokinligi”, “Shirin bog‘i”, “Ruh yo‘llari”, “Taxt”, “Taqdis shaxti”, “Ko‘m-ko‘k”, “Sarviston”, “Marvarid soyabon” va hokazo deb atalardi. Borbad yaratgan qo‘shiqlardan ayrimlarining nomlari bizning kunlarga yetib kelganki, ularga “Yam-yashil”, “Ov gashti”, “Choshtgoh”, “Sarvzor” va boshqa asarlar kiradi.

Xozirgi O‘zbekiston xududida IX—XV asrlar buyuk Uyg‘onish davri deb nomlanadi. Mazkur davrgacha o‘lka madaniy xayoti juda jonlana boshladi. Musiqashunoslik va qo‘shiqchilik san’ati izchil rivojlandi. Chingizxon istilosi davrida Movarounnaxr madaniyatiga katta putur yetkazilganiga qaramay avvalgi madaniyatni yana qayta tiklash mumkin bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qambarov A.A., Mannopov S., Najmetdinova M.M. O‘zbek san’ati tarixi. Farg‘ona nashriyoti. 2021. –B. 60.
2. Ibn Sino, Abu Ali. Kitob ash-shifo. – Tehron: Intishorat-e Doneshgoh, 1984.
3. Urmaviy S. Kitab al-advar. – Bag‘dod: Dar al-Hurriya, 1975.
2. Matyoqubov O. Maqomot. –Toshkent: Musiqa nashriyoti. 2004. –B. 100
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 9-tom.
4. Asafyev B. V. O muzike narodov Sredney Azii. – Leningrad: Muzyka, 1979.
5. Виноградов В. “Классические традиции иранской музыки”-М.,1979.стр.56
6. Bichurin N. Ya. Sbranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. – Moskva: Nauka, 1950.
7. Vinogradov V. S. Klassicheskie traditsii iranskoy muzyki. – Moskva: Sovetskiy kompozitor, 1980.

8. Hamidov H. O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. – Toshkent: Fan, 1996.